

**ZULFIYA MO‘MINOVA VA ANNA AXMATOVA LIRIKASIDA  
MUHABBAT VA HIJRON MOTIVI****Sharofatxon Ismoilova**

Qo‘qon universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyoti vakilasi Zulfiya Mo‘minova va XX asr rus adabiyoti vakili Anna Axmatova lirikasida muhabbat va hijron motivlarining badiiy talqini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Shoiralarning lirik qahramon ruhiyati, muhabbatning badiiy ifodasi, hijron kechinmalarining badiiy vositalar orqali ochilishi yoritiladi. Ikki shoira ijodining asosiy mavzularidan bir bo‘lgan ayol timsoli va uning ichki kechinmalariga ikki millat, ikki davr vakillarining mushtarak va farqli qarashlari o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, ijod namunalaridan parchalar qiyosiy-badiiy tahlil qilinadi. Qolaversa, milliy poetik tafakkur va individual uslubning ushbu mavzu talqiniga ta’siri haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Lirika, muhabbat, hijron, badiiy vositalar, akmeizm, qiyosiy adabiyotshunoslik, psixologizm, ayollar she’riyati.

**Annotation.** This article comparatively and typologically analyzes the artistic interpretation of the motifs of love and separation in the lyrics of Zulfiya Mo‘minova, a representative of modern Uzbek literature, and Anna Akhmatova, a representative of twentieth-century Russian literature. The study highlights the psychological state of the lyrical heroine, the artistic expression of love, and the depiction of the experiences of separation through various artistic devices. The image of womanhood and its inner emotional experiences, which constitute one of the central themes in the works of both poets, reveal both common and distinctive perspectives shaped by two different nations and historical periods. In addition, selected poetic excerpts are examined through comparative literary analysis. Furthermore, the article discusses the influence of national poetic thinking and individual style on the interpretation of this theme.

**Keywords:**Lyrics, love, separation, artistic devices, Acmeism, comparative literature, psychologism, women’s poetry.

Azaldan muhabbat va hijron motivlari inson ruhiyatining eng nozik kechinmalarini ifodalovchi abadiy poetik mavzulardan biri hisoblanadi. O‘zbek mumtoz adabiyotining



eng asosiy figurasi hisoblangan ushbu mavzular zamonaviy o‘zbek she‘riyati va jahon she‘riyatining turli davr va madaniyatlarida o‘ziga xos badiiy talqin topgan. Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida Zulfiya Mo‘minova, rus adabiyotida esa Anna Axmatova muhabbat lirikasining yetuk namoyandalaridandir. Ularning ijodida muhabbat va hijron motivi ayol qalbining ichki iztiroblari bilan uyg‘un holda aks etadi. Zamonaviy o‘zbek she‘riyatining iste‘dodli vakillaridan biri hisoblangan Zulfiya Mo‘minova 1959-yil Samarqand viloyatida tavallud topgan. Uning “Vatan tashlab ketmaydi”, “Beshiklarni asragin dunyo”, “Yonayotgan ayol”, “Samoga sochilgan yulduzlar”, “Ayolga baxt bering” kabi she‘riy to‘plamlari chop etilgan. Zulfiya Mo‘minova she‘riyatida ayol qalbi va uning ichki dunyosi, ayolning onalik mehri, ruhiy kechinmalari va tuyg‘ulari kabi mavzular yetakchilik qiladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiyada yashab ijod qilgan taniqli rus adabiyoti vakilasi Anna Axmatova “Oqshom”, “Tasbeh”, “Oq to‘da”, “Qahramonsiz poema” kabi asarlari orqali o‘zbek kitobxonlari orasida ham mehr qozongan. Anna Axmatova XX asr rus she‘riyatida akmeizm oqimining yetuk namoyondasidir. Uning lirikasida ayol ruhiyati, muhabbat fojeasi, sabr, ichki iztiroblari yetakchi mavzu hisoblanadi.

Har ikki shoira ijodida ham ayol ruhiyati, qalbi va uning ichki olamini ifodalashda muhabbat va hijron mavzusi yetakchilik qiladi. Ularning ijodini qiyosiy o‘rganish ayol poetik tafakkurining milliy va umuminsoniy jihatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zulfiya Mo‘minova she‘riyatida muhabbat poklik, sadoqat va ma‘naviy komillik timsoli sifatida tasvirlanadi. Lirik qahramon his-tuyg‘ulari ham sharqona nazokat va sabr bilan ifodalanadi. Muhabbat inson ruhini yuksaltiruvchi ma‘naviy kuch sifatida talqin etiladi. Xususan, ijodkor she‘rlaridan birida shunday deb yozadi:

“Men aldab yashadim o‘zimni o‘zim,

O‘zimmiki dedim qarashlaringni.

O‘zgani tush ko‘rsa ko‘r bo‘lsin ko‘zim,

O‘zinga qaratdim qarg‘ishlarimni” [2, 33]

Bu o‘rinda biz ayolning javobsiz muhabbati, shu taqdirga allaqachon ko‘ngan mahbuba iztiroblari, shunday bo‘lsada bundan afsuslanmaydigan, sevikli yoridan o‘zgasini xayollari tugul tushlarida ham ko‘rishdan iymnadigan, buni o‘zi uchun isnod deb biladigan pokiza qalb izhorini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa chinakam sharq ayoliga mos xarakter.

Ushbu misralar bizga beixtiyor turkiy she‘riyat sultoni Alisher Navoiyning “aylasa” radifli g‘azalini yodga soladi. Mashuqasini boshqalar nigohidan qizg‘onish garchi adabiyotda ko‘p uchrasa ham oshiq o‘zi uchun ichki shartlar qo‘yishi, muhabbatining



kuchi va pokligini isbotlash uchun boshqasiga qarashni ham istamasligi Navoiy tilidan shunday bayon topadi:

“O‘zgalar husnin tamosho aylasa chiqsun ko‘zim,  
O‘zga bir ko‘z hamki husningni tamosho aylasa” [4, 50]

Shubhasiz, Navoiy ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmagan. Shu ma‘noda Zulfiya Mo‘minova misralarini she‘riyatimiz asosi bo‘lmish mumtoz adabiyoti bilan sidqidildan tanishgan, munosib izdoshlik mas‘uliyatining namoyishi sifatida baholash mumkin.

Rus she‘riyatida o‘z yo‘nalishini yarata olgan yetuk ijodkor Anna Axmatova lirikasida ham muhabbat asosiy mavzulardan biridir. Ijodkor she‘rlarida muhabbat murakkab ruhiy kechinmalar manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan shoira she‘rlaridan birida shunday yozadi:

Bari senga dil nolalari,  
Va uyqusiz tunlar yomg‘iri;  
She‘rlarimning oq galalari,  
Ko‘zlarimning moviy yong‘ini. [1, 11]

E‘tibor bersak, bu o‘rinda lirik qahramon muhabbatining yashirin ammo kuchli tuyg‘ular asosiga qurilganini ko‘ramiz. Negaki, uyqusiz tunlar, muhabbat haqidagi hisobsiz she‘rlar, moviy ko‘zlarda ba‘zan umid ba‘zan iztirob tufayli alanga oladigan yong‘in ayol qalbidagi kuchli muhabbat sababli.

Garchi Anna Axmatova she‘riyatida yevropa adabiyoti ruhiga yaqin, qat‘iylik va ba‘zan keskin tuyg‘u izhorlari uchrasa ham yuqoridagi misralarda sharqona she‘riyat iforini tuyish mumkin. Bu esa Zulfiya Mo‘minovaning muhabbat mavzusidagi she‘rlari bilan mushtaraklikni keltirib chiqaradi.

Zulfiya Mo‘minova ijodida hijron sabr va umid bilan sug‘orilgan bo‘lsa, ayriliq insonni ma‘naviy chiniqtiruvchi sinov sifatida talqin qilinadi. Xususan, ijodkor she‘rlaridan birida :

Bu hijron tunida qoshin chimirib,  
Bir so‘zni aytolmay dadil hushida.  
Poydor qo‘llarini ko‘ksiga berib,  
Meni bir bahodir ko‘rar tushida [2, 10]

deb yozadi. Bu misralarda ham sharqona hayoga o‘ralgan chin muhabbat tasvirini ko‘rish mumkin. Chunki, sharqona odobga ko‘ra erkaklar muhabbati kuchli bo‘lsa ham tilga chiqarilmaydi. Lirik qahramon shunga ishora qilib sevikli yori bahodirlar kabi baquvvat bo‘lsa-da hushi o‘zida, bedor paytda bir so‘z ham aytishga ham hayo qilishini aytadi.



## Learning and Sustainable Innovation

Anna Axmatova she'rlarida esa hijron fojaviy ruhda ifodalanadi. Ayriliq lirik qahramon qalbida chuqur iztirob va yolg'izlikni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, uning ijodida lirik qahramonning javobsiz qolgan izhorlari va e'tiborsizlikka nisbatan munosabati keskin, qarorlari qat'iyliги yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ammo ikki shoira ijodida ham ayol nozik va bebaho xilqat ekanligi, qalb kechinmalarining tuganmas qirralari borligi mohirlik bilan ifoda etilgan. Jumladan, Anna Axmatova ayolga undov mavzusidagi she'rida shunday deb yozsa:

Jilmayasan ko'zguga qarab,  
Malak turar surgancha xayol,  
Ko'z yoshing art, boshingni ko'tar,  
Go'zallikning o'zsan ayol! [6]

Zulfiya Mo'minovaning o'zbek xalqi orasida mashhur "Ayolga baxt bering" she'rida shunga monand misralar uchraydi:

Ayolga baxt bering, saodat bering,  
Demang, yuribdi-ku, kulib, jilmayib.  
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,

Dunyoni olishi mumkin jilmayib. [3,87]

E'tibor bersak, bir xil mavzuda yozilgan ikki ijod namunasida ham asosiy diqqat bir nuqtaga qaratilgan. Ya'ni, ayolning o'zini anglashi va ichki qudratini namoyon eta olishi. Zidlash badiiy vositasi asosiga qurilgan ikkala she'rda ham ayol obrazi mehr va e'tiborga muhtoj xilqat sifatida baholanadi. Zulfiya Mo'minova ta'birida ayol qalbining sirlarini yuzaga chiqarmaydigan, kulib dunyoni olish qudratiga ham yoki tasodifan o'lib qolishi ham mumkin bo'lgan maysadek nozik xilqat. Shoira lirik qahramoni ayolni doimo asrashga va e'zozlashga undaydi.

Anna Axmatova misralari esa to'g'rida to'g'ri ayolning o'ziga qaratilgan bo'lib, ayol o'z qadri va qiymatini anglashi kerakligi yakuniy xulosa sifatida beriladi.

Har ikki shoira ham o'z ijodida ramziy obrazlardan keng foydalanadi. Zulfiya Mo'minova ijodida tabiat tasvirlari, nur, bahor, gul obrazlari ustunlik qilsa, Anna Axmatovada tun, sukunat, sovuq ranglar, soyalar ko'proq uchraydi. Bu poetik vositalar muhabbat va hijronning turli ruhiy holatlarini ochishga hamda ular yashagan davr ijtimoiy ruhini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Yana bir ijodiy mushtaraklik jihati ikki ayol ijodida ham mavhum tasvirlardan ko'ra kechinmalarni aniq detallar, tabiat hodisalari, umuman ko'zga ko'rinadigan narsalar bilan mohirona tasvirlash mahorati kuchli. Bu esa ularning ijodini xalqqa yaqinlashtira olgan eng kuchli omillardan biri hisoblanadi. Zero, Zulfiya Mo'minova hamda Anna Axmatova ijodini oddiy kitobxondan tortib adabiyot ilmi zakiylarigacha mutolaa zavqi tuya oladigan,



qolaversa, har kimda o‘z darajasiga yarasha tafakkur uyg‘otadigan keng ijodiy va ilmiy maydon desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa sifatida qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Zulfiya Mo‘minova va Anna Axmatova lirikasida muhabbat va hijron motivlari mushtarak bo‘lsa-da, ularning badiiy talqinida milliy poetik tafakkur va individual uslub sezilarli farq qiladi. Bunga ushbu ijodkorlar yashagan davr va muhit ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmagan, albatta. Birinchisida sharqona sabr va sadoqatning nafis ifodasini ko‘rsak, ikkinchisida fojiviy ichki dramatism yetakchilik qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmatova A. She‘rlar. Xurshid Davron tarjimalari. Xurshid Davron kutubxonasi <https://share.google/ICnBbjZo0uyQHf2T1> 10.04.2026
2. Mo‘minova Z. Beshiklarni asragin, dunyo. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988.
3. Mo‘minova Z. Ayolga baxt bering, saodat bering. -Toshkent: Noshirlik yog‘dusi, 2011.
4. Navoiy A. Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob (Yangi devon)-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988.
5. Jo‘raqulov U. Hamroyev K. Qiyosiy adabiyotshunoslik. –Toshkent,2021.
6. Qo‘chqorova M. XX asr ayollar she‘riyatida badiiy tafakkur tadriji: monografiya. -Toshkent: Fan, 2016.